

BOLALARNI ZO‘RAVONLIKNING BARCHA TURLARIDAN HIMoya QILISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Akbarov Axrorbek Iminjonovich

Andijon viloyati Andijon tumani

20-maktab amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik yoki shafqatsizlik bu bola yoki bolalar guruhiga ota-onada yoki tarbiyachi tomonidan, jinsiy va/yoki ruhiy zo‘ravonlik qilinishi yoki, umuman, beparvolikdir. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik ota-onada yoki tarbiyachining bolaga haqiqiy yoki potensial zarar yetkazishiga olib keladigan har qanday xatti-harakat yoki harakatsizlikni o‘z ichiga olishi mumkin va bu holat odatda bolaning uyida bola vaqt o‘tkazadigan tashkilotlar, maktablar yoki jamoalar joylarida sodir bo‘ladi.

Kalit so`zlar: zulm, zarar, exploitation, beparvolik, bevosita zulm, bilvosta zulm, jismoniy zuravonlik, jinsiy zuravonlik.

KIRISH

Qonun loyihasi bilan bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar, ularning vakolatlari aniq belgilab berilmoxqa. Bunda bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya tomonidan muvofiqlashtirilishi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi komissiyaning ishchi organi, qolaversa, qonun ijrosini ta’minalash bo‘yicha vakolatli organ etib belgilanishi taklif etilmoqda.

Qonun loyihasida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik shakllariga ta’rif berilib, ularni sodir etishni taqiqlash, qonunga binoan ta’qib qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash ko‘zda tutilmoqda. **Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik shakllari amaldagi uchtadan (jismoniy, jinsiy, ruhiy) oltitaga (g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling) oshirilmoqda.**

Bulling — bolaning boshqa bolaga maqsadli ravishda zarar yetkazishidir. Bu muntazam ravishda takrorlanadigan va jabrlanuvchida unga nisbatan zo‘ravonlikni to‘xtatishiga to‘sinqil qiladigan kuchning nomutanosibligidagi harakat. Bulling har qanday joyda va istalgan vaqtida sodir bo‘lishi mumkin: bolaning kundalik hayotida, bevosita munosabatlarda yoki ijtimoiy tarmoqlarda. Bu nafaqat bolaning diqqatini ta’limda jamlashiga to‘sinqil qiladi, balki uzoq muddatli psixologik jarohatlarga ham olib kelishi mumkin. Bulling jarayoni e’tibordan chetda qolib ketishi kerak emas.

Ekspluatatsiya — bu bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakldagi mehnatga majburlash;

G‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik — ota-onalar zarur imkoniyatlar, bilim va ko‘nikmalar, shuningdek tegishli xizmatlardan foydalanish sharoitiga ega bo‘lishiga qaramay qarmog‘idagi bolaning sog‘lig‘i, jismoniy, aqliy, ma’naviy va axloqiy rivojlanishining jiddiy buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan jismoniy, moddiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarini qondirmaslik.

Mazkur qonun loyihasi bilan ilk bor yangi institut joriy qilinyapti. Ya’ni, **endilikda bolalarga ham himoya orderi berish taklif etilmoqda**. Order vakolatli organ tomonidan zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining qonuniy vakiliga yoki bolani o‘z qaramog‘iga olgan boshqa shaxsga hamda zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining o‘ziga beriladi. Bundan tashqari, loyiada bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishda ota-onalarning ishtiroki va ularning majburiyatlarini belgilab qo‘yilmoqda. Jumladan, ota-onalar bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishi, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi hamda zararli ta’sir ko‘rsatuvchi axborotdan himoya qilishi shartligi, bolalarni tarbiyalashda ularni jismoniy jazolash taqiqlanishi nazarda tutilmoqda. Qonun loyihasida **ta’lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yilmasligi**, ta’lim muassasalarida intizomiy jazo chorasi sifatida zo‘ravonlikning har qanday shakli, shu jumladan, jismoniy jazo va boshqa shafqatsiz xatti-harakatlarni amalga oshirish yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalani qo‘llashga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy belgilanmoqda.

Shubhasiz, zo‘ravonlik holatlari bolalarda jismoniy, ruhiy, xulq-atvor va ijtimoiy buzilishlarni keltirib chiqaradi.

Umuman olganda, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish hukumatlarning vazifasi bo‘lib, ular oilalarga yordam berish, o‘qitish va qo‘llab-quvvatlash dasturlarini yaratishi kerak.

Agar bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatini bilsangiz nima qilish kerak?

Agar siz bolalarga nisbatan zo‘ravonlik qilingani holatini bilsangiz yoki unga shubha qilsangiz, hududingizdagи bolalarni himoya qiladiganorganlarga murojaat qiling.

Agar jismoniy zo‘ravonlik yoki beparvolik bolaning hayotini bevosita xavf ostiga qo‘yadi, deb hisoblasangiz, ikkilanmasdan ichki ishlar va prokuratura organlariga qo‘ng‘iroq qiling.

Afsuski, agar siz beparvo bo‘lsangiz, bolalarga nisbatan zo‘rlik yo‘qolmaydi.

Bugungi kunda adabiyotlarda sinonimlar sifatida «zulm» va «nomunosib munosabat» so‘zleri ishlatiladigan «bolalarga nisbatan zulm» tushunchasi (ingl. Child Abuse) Butunjahon Sog‘liqni saqlash Tashkiloti tomonidan 1999 yilda taklif etilgan quyidagi ta’rifga tayanadi: «Zulm» yoki «bolalar bilan qo‘pol muomalada bo‘lish»

«...bolaning sog‘lig‘iga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan barcha turdagи jismoniy yoki emotsiyal salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya»ni anglatadi

Demak, xalqaro amaliyotda qabul qilingan «bolaga nisbatan zulm» atamasi o‘zida «ehtiyyotsiz munosabat» hamda «tashlab qo‘yilganlik» (ingl. Neglect) tushunchalarini ham o‘zida mujassam etadi. O‘zbekistonda «bolalarga nisbatan zulm va ehtiyyotsiz munosabat» tushunchasi avvalo qonuniy asosga tayanadi. O‘zR qonunchiligiga ko‘ra, zulm deganda ehtiyyotsiz va loqayd munosabatda bo‘lish nazarda tutilmaydi. Zulm va loqayd munosabat quyidagicha ta’riflanadi: Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko‘makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy dahlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta’sir ko‘rsatishdir. Mazkur ta’rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko‘rinishlari ajratib ko‘rsatiladi.

Bolaga loqayd munosabatda bo‘lish – ota-onalar yoki ularni o‘rnini bosuvchi kishilar, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan bolalarni boqish, tarbiyalash, sog‘lom turmush kechirish sharoitlarini yaratish, to‘la ma’lumot olish va shu kabilarni ta’minalashga doir o‘z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasliklari.

Bolalarga nisbatan noloyiq munosabat turlari

Jismoniy zo‘ravonlik – shafqatsizlik va bolaga og‘riq keltiruvchi hamda uning sog‘lig‘i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos bo‘lmagan maqsadga yo‘naltirilgan boshqa xatti-harakatlar:

- ✓ bolaga yetkazilgan har qanday tana jarohati yoki og‘riq berish (urish, chimchilash, tishlash, kuydirish, bolani bo‘g‘ish yoki cho‘ktirish)
- ✓ bolaga tana jarohati yetkazilishiga qarshilik qilmaslik
- ✓ bolani har qanday jismoniy jazolash – tarsaki, kaltaklash, tahqirlash
- ✓ bolani dori yoki boshqa kimyoviy vositalar yordamida zaharlash
- ✓ Jinsiy zo‘ravonlik – kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish. Bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch, ayyorlik va ishonchdan foydalanish.
- ✓ bola bilan har qanday jinsiy aloqa yoki munosabatlar (kuch ishlatgan holda yoki ishlatmasdan)
- ✓ bolani jinsiy aloqaga jalb qiluvchi har qanday xulq-atvor
- ✓ seksual tavsifdagi har qanday xatti-harakatlar – o‘yinlar, suhbatlar, foto va video tasvirlarni tomosha qilish
- ✓ seksual g‘arazgo‘ylik – bolani seksual maqsadda sotish, pornografik foto va videotasvirlardan foydalanish
- ✓ fohibabozlikka jalb qilish

Emotsional (ruhiy) zo'ravonlik – bolaga lozim darajada e'tibor bermaslik, g'amxo'rlik qilmaslik, qo'llab-quvvatlamaslik, hissiy yaqinlik ko'rsatmaslik. Bola doimiy ravishda e'tibor va mehrning yetishmasligini his qilib turadi, tahdid va kamsitishlarga duchor bo'ladi va bu o'z qadr-qimmatini bilmaslik va o'ziga ishonchsizlikni oshishiga olib keladi, bularga:

- ✓ yolg'on, tahdid, qo'rqtish, kamsitish, haqorat qilish, so'kish;
- ✓ boladan voz kechish, izolyasiya
- ✓ noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish va majburlash
- ✓ bola bajara olmaydigan ishlarni bajarishni asossiz talab qilish □
bolaning me'yorida rivojlanishiga to'siq bo'luvchi ortiqcha homiylik □
kattalarning o'z va'dalarini bajarmasligi, bolada ishonch tuyg'usining buzilishi.

Ehtiyyotsiz munosabat (befarqlik) – bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatilishga olib keluvchi hayotiy ehtiyojlarni qondirilmasligi:

- ✓ e'tiborsiz, qarovsiz qoldirish, xavf ostida qoldirish;
- ✓ bola ehtiyojlariga nisbatan befarqlik (ovqatlanishga, tibbiy ko'makka, ta'limga, muloqotga, rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi);
- ✓ hissiy yaqinlikning yo'qligi (undan voz kechish)
- ✓ mavjud tahdiddan bolani himoya qila olmaslik (istamaslik)

Ekspluatatsiya – boladan o'z manfaati yo'lida foydalanish – og'ir mehnat, seksual foydalanish, trafik (foydalanish maqsadida bolalarni olib chiqib ketish, sotish).

Bola bilan shafqatsiz munosabatning to'rtta turini ajratadilar:

- ✓ Shafqatsiz jismoniy munosabat
- ✓ Jinsiy zo'ravonlik
- ✓ Bola ehtiyojlariga e'tiborsizlik
- ✓ Psixologik zo'ravonlik

Shafqatsiz jismoniy munosabat – bolaga yetkazilgan tasodifiy bo'limgan har qanday tan jarohati.

Bolalar ustidan jinsiy zo'ravonlik – bola yoki o'smirdan shaxsiy jinsiy lazzat olish uchun foydalanish.

Bola ehtiyojlariga e'tiborsizlik – ota-onada yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning 18 yoshga to'limgan bolaning asosiylari ehtiyojlarini ta'minlashga surunkali noqdirligi.

Psixologik zo'ravonlik, o'z navbatida, ikki turda bo'lishi ham mumkin:

- ✓ psixologik beparvolik – bu ota-onada yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning bolaga zaruriy ko'mak, e'tibor, psixologik himoyani ta'minlashga qodir emasliklari, unga mehrning yo'qligi.

✓ psixologik shafqatsiz muomala – kattalar tomonidan bolani tahqirlash, uni kamsitish, xaqoratlash, mazax qilish maqsadida sodir etiladigan surunkali harakat.

Dastlab bolaga zo‘ravonlik namoyon etishning sababi ota-onalarning psixologik og‘ishi deb hisoblandi, keyin diqqat ijtimoiy kontekstga ko‘chirildi, bundan xatar omili ota-onaning bolaga zo‘ravonlik munosabatini shartlovchi qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy yakkalanishda yashirin ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi. So‘ng zo‘ravonlikni ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning buzilgan interfaol ijtimoiy modeli orqali sharhlashdi.

XULOSA

Xulosa o’rnida aytish zarurki, tadqiqotchilar xatar omillarini shaxs, oila va jamiyat darajasida aniqlaydilar va bir omil emas, balki ularning o‘zaro ta’siri bolalar ustidan zo‘ravonlik o‘tkazishga olib kelishini isbotlaydilar. Shuningdek, ular u yoki bu xatar omilining mavjudligi zo‘ravonlikni namoyon etish degani emas, balki uning paydo bo‘lish ehtimoli yoki imkoniyati borligini ta’kidlaydilar. Bunda bir necha ijobiy omillarning mavjudligi (ijtimoiy ko‘nikmalar, “Men” ning ijobiy identifikatsiyasi va h.k.) xatar omilining ta’sirini kamaytiradi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. *Человек. Наука. Социум*, (2), 62-74.
2. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. *Человек. Наука. Социум*,
3. (1), 33-46.
4. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. *Ученый XXI века*, 62.
5. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. *Человек. Наука. Социум*, (2), 8-27.
6. Абдурахмонова, М. М. (2021). Мактабларда самарали қарор қабул қилиш учун жамоатчилик фикрини ўрганиш зарурияти. *Журнал Социальных Исследований*, (SPECIAL ISSUE 1).